



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 21 - avgust

VI-64-167-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-sonli va 2019-yil 8-yanvardagi PQ-4102-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha sektor rahbarlarining 2023-yilning 6 oyi davomida olib borgan faoliyati yuzasidan hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarori, 2019-yil 17-yanvardagi “Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5633-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasi hamda tumandagi 1-, 2-, 3-, 4-sektor rahbarlarining hisobotini tinglab, xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarorining ijrosi yuzasidan tumandagi sektor rahbarlarining 2023-yilning 6 oyi davomida olib borgan faoliyati to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman sektor rahbarlari (Q.Mardonov, S.Ramazonov, S.Choriyev, N.Sharipov) mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

- 2023-yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturida belgilangan vazifalar asosida sektorlar hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash;

- investitsiyalarni jalb qilgan holda, yangi ishlab chiqarish korxonalarini ishga tushirish hisobiga hududlarning iqtisodiyotini rivojlantirish;

- korxonalarining eksport salohiyatini oshirish, bunda asosiy e’tiborni to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishga qaratish;

- faoliyat yuritmayotgan korxonalar faoliyatini tiklashga ko‘maklashish;
- qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish va aholining vaqtincha ishsiz qatlami, ayniqsa, yoshlar, xotin-qizlar bandligini ta‘minlashga asosiy e‘tiborni qaratish;
- mahalliy budjet va mahalliy budjet daromadlarining tushumi ko‘rsatkichlarini sektorlar kesimida bajarilishini muntazam ta‘minlash choralari ko‘rib borish;
- sektorlar hududida, mahallalar kesimida belgilangan qurilish, ta‘mirlash va obodonlashtirish ishlarini, shuningdek, turli dasturlar va “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi chora-tadbirlarni ko‘rib borish;
- ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlari, ichki yo‘llarni ta‘mirlash, ichimlik suvi, elektr energiyasi, tabiiy gaz ta‘minoti va kanalizatsiya, tungi yoritish tizimlari, ko‘p qavatli turar-joy binolari fasad qismini, piyodalar yo‘laklari, irrigatsiya va sug‘orish tizimlarini ta‘mirlash, yakka tartibdagi uy-joylarni hamda ularga tutash bo‘lgan hududlarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish;
- har qanday montaj, ta‘mirlash, obodonlashtirish ishlarini, shuningdek, mahallalarning zamonaviy shaharsozlik qiyofasini yaratishga qaratilgan barcha loyihalarni bosh rejaga muvofiq amalga oshirish;
- qish mavsumida ko‘p qavatli uy-joy fondi, turar joy xonadonlari, ijtimoiy-iqtisodiy soha obyektlariga kommunal xizmatlar ko‘rsatish hamda aholiga sifatli xizmat ko‘rsatishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish;
- qurilishi yakuniga yetmagan obyektlarni nihoyasiga yetkazish, bo‘sh turgan binolardan samarali foydalanish, hududni obodonlashtirish, toza hudud tadbirlarini doimiy o‘tkazib borish ishlarini davom ettirish;
- sektor kotiblari, mahalla fuqarolar yig‘ini raislari, faollari, hokimning mahalladagi yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli bilan birgalikda, “Temir daftar”, Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” ro‘yxatida turgan fuqarolar, ayollar, yoshlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oilalar, xotin-qizlar va yoshlarga yordam ko‘rsatish;
- aholi bandligini ta‘minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, kredit va subsidiya ajratish masalalarida ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, mahallalarda band bo‘lmagan yoshlar va xotin-qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish;
- yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo‘lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinganlarni ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta‘minlash;

- tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishlashga xohish-istagi bo‘lgan, boquvchisini yo‘qotgan, ko‘p bolali, yolg‘iz onalar, nogironligi bo‘lgan, nogiron farzandlarini tarbiyalayotgan va kam ta‘minlangan, xorijda mehnat qilib qaytgan ishsiz yoshlar va xotin-qizlar bilan tizimli ishlashga alohida e‘tibor qaratish;

- “Sayyor qabul”larda fuqarolarning murojaatlarni qonun hujjatlari talablariga qat’iy amal qilgan holda, to‘liq, o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi, shuningdek, aniqlangan muammolarning hal etilishini tashkil etish va nazorat qilish, hal qilinmagan va takroriy murojaatlarni tahlil qilib borish, aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

- aholi murojaatlari bilan ishlash jarayonida kam ta‘minlangan, ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga “Saxovat va ko‘mak”, xotin-qizlarga “Ayollar daftari”, yoshlarga “Yoshlar daftari” jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan moddiy yordam ajratish amaliyotini davom ettirish vazifalari yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi doimiy komissiyalari hamda deputatlari:

- sektorlar hududida ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlarini rivojlantirish, mahallalar hududini obodonlashtirish, ichki yo‘llar, muhandislik kommunikatsiyalari va ijtimoiy soha obyektlarini kapital ta‘mirlash, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni tizimli hal etish asosida aholining turmush sharoitini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan doimiy deputatlik nazoratini o‘rnatish tavsiya etilsin.

5. Topshiriqlar ijrosi yuzasidan sektor rahbarlari chorak yakuni bo‘yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashiga hisobot kiritsin.

6. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga:

- sektorlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish;

- joylarga chiqib, amalga oshirilayotgan islohotlarni keng aholi qatlamiga yetkazish maqsadida, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari raislari (R.Kabulova, Y.Xalimov, M.Qodirova, Sh.Qo‘ziyeva, M.Sadatov, X.Xudoyberdiyev, Q.Ergashev, D.Xo‘janova)ga, ijrosini ta‘minlash Angor tumani sektor rahbarlari (Q.Mardonov, S.Ramazonov, S.Choriyev, N.Sharipov)lar zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**